ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiquyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadidova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	1881
A.A. Ismailov	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	



XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Karshiyeva Charos Mamasoliyevna

O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati, Ishtixon tumani
“Sher Effect Trans” MCHJ kadrlar bo‘limi boshlig‘i

Email: charoskatshieva_1988@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada xizmatlar eksportini rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlar chuqur tahlil qilingan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Shu bois xizmatlar eksportini kengaytirish, uning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Tadqiqotda xizmatlar eksportining hozirgi holati, tarmoqlar kesimidagi o‘shish sur‘atlari hamda bu jarayonga ta‘sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va texnologik omillar o‘rganilgan. Maqolada raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni joriy etish xizmatlar eksporti samaradorligini oshirishdagi muhim omil sifatida baholangan. Shuningdek, xalqaro tajribalar tahlili asosida O‘zbekiston sharoitida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan, elektron tijorat, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, intellektual xizmatlar eksportini kengaytirish kabi yo‘nalishlar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xizmatlar eksporti hajmini oshirish uchun davlat siyosati, xususiy sektor tashabbuslari va innovatsion raqobatbardoshlik modelining uyg‘unlashuvi zarur ekani aniqlangan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar bozori, eksport, raqobatbardoshlik, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, xalqaro tajriba, iqtisodiy samaradorlik, diversifikatsiya, logistika infratuzilmasi, intellektual xizmatlar.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the theoretical, methodological, and practical aspects of developing service exports. In recent years, the service sector in the Republic of Uzbekistan has become one of the fastest-growing branches of the national economy. Therefore, expanding service exports, improving their structural composition, and enhancing competitiveness in international markets have become highly relevant issues. The study examines the current state of service exports, sectoral growth rates, and the economic, institutional, and technological factors influencing this process. The paper evaluates the implementation of the digital economy and innovative technologies as key drivers in increasing the efficiency of service exports. Moreover, based on international experience, effective mechanisms applicable to Uzbekistan — such as the development of e-commerce, modernization of logistics infrastructure, and expansion of intellectual service exports — are proposed. The research concludes that the integration of state policy, private sector initiatives, and an innovation-based competitiveness model is essential for boosting the volume and quality of service exports.

Key words: service market, export, competitiveness, innovation, digital economy, international experience, economic efficiency, diversification, logistics infrastructure, intellectual services.

Аннотация. В данной научной статье всесторонне проанализированы теоретические, методологические и практические аспекты развития экспорта услуг. В последние годы сфера услуг в Республике Узбекистан стала одной из наиболее быстро развивающихся отраслей национальной экономики. В связи с этим расширение экспорта услуг, совершенствование его структурного состава и повышение конкурентоспособности на международных рынках приобретают особую актуальность. В исследовании изучено современное состояние экспорта услуг, темпы роста по отраслям, а также экономические, институциональные и технологические факторы, влияющие на данный процесс. В статье внедрение цифровой экономики и инновационных технологий оценивается как важный фактор повышения эффективности экспорта услуг. Кроме того, на основе анализа международного опыта предложены эффективные механизмы, применимые в условиях Узбекистана, включая развитие электронной коммерции, модернизацию логистической инфраструктуры и расширение экспорта интеллектуальных услуг. В результате исследования установлено, что для увеличения объема экспорта услуг необходимо гармоничное сочетание государственной политики, инициатив частного сектора и инновационной модели конкурентоспособности.

Ключевые слова: рынок услуг, экспорт, конкурентоспособность, инновации, цифровая экономика, международный опыт, экономическая эффективность, диверсификация, логистическая инфраструктура, интеллектуальные услуги.



KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda xizmatlar sektori tobora muhim strategik o'rin egallamoqda. Xizmatlar nafaqat ichki bozorning barqaror rivojlanishiga, balki tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishiga ham kuchli turtki bermoqda. Jahon amaliyotida xizmatlar eksporti yalpi ichki mahsulotning (YalM) o'sish sur'atlarini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylangan. Shu sababli, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash va tashqi bozorlarda mustahkam o'ringa ega bo'lish uchun xizmatlar eksportini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan muhim tarmog'iga aylanib bormoqda. Turizm, transport-logistika, axborot texnologiyalari, ta'lim, moliya va bank tizimi kabi yo'nalishlarda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan xizmatlar sohasini liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, shuningdek, eksportni rag'batlantirishga qaratilgan dasturlar mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirishda muhim o'rin tutmoqda.

Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlarga qaramay, xizmatlar eksporti hajmi va raqobatbardoshligi hali to'liq salohiyat darajasiga yetganicha yo'q. Jahon bozorida yuqori talabga ega bo'lgan xizmat turlarining yetarli darajada rivojlanmagani, eksport infratuzilmasining sustligi, marketing strategiyalarining samarador emasligi hamda kadrlar malakasining yetarli emasligi kabi omillar ushbu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur maqolada xizmatlar eksportining iqtisodiy mohiyati, ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston sharoitida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan yondashuvlar va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari xizmatlar eksporti hajmini kengaytirish, sifatini oshirish hamda xalqaro bozorlarda milliy brend sifatida tan olinishiga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar eksporti va uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi xalqaro miqyosda keng tadqiq etilgan bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda bu sohaning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi strategik ahamiyati ko'p marotaba ta'kidlab o'tilgan.

Jahon iqtisodiy tadqiqotlarida, xususan, M. Porter (1990) o'zining "Millatlar raqobat ustunligi" asarida raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida innovatsiya, samarali boshqaruv, inson kapitali va texnologik rivojlanish darajasini ajratib ko'rsatgan. Porter nazariyasiga ko'ra, xizmatlar sohasida raqobat ustunligini ta'minlash uchun milliy resurslardan oqilona foydalanish, xizmat sifatini oshirish hamda mijoz ehtiyojlariga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. [7]

P. Krugman (1994) esa xalqaro savdoda xizmatlar eksportining ahamiyatini ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlaridagi "raqamli integratsiya" bilan bog'lab, xizmatlar sektori global qiymat zanjirining muhim halqasiga aylanganini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, xizmatlar eksportining rivojlanishi mamlakatning tashqi savdo balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy o'sishning barqaror manbai sifatida qaraladi. [8]

Bundan tashqari, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda (2020–2023-yillar) xizmatlar eksportining o'sish dinamikasi, raqamli xizmatlar ulushining ortib borayotgani, transport va logistika xizmatlarining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi haqida muhim xulosalar keltirilgan. Mazkur manbalarda qayd etilishicha, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun xizmatlar eksportini kengaytirish yangi ish o'rinlari yaratish va yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishda asosiy omil hisoblanadi. [14, 15]

O'zbekiston olimlari orasida ham xizmatlar eksporti va raqobatbardoshlik masalalari qator ilmiy izlanishlarda o'rganilgan. A. Vahobov, B. Qosimov, Sh. Axmedov, D. Tursunov kabi iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida xizmatlar sektorining iqtisodiy samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish yo'nalishlarini yoritib o'tganlar. Ularning ishlarida xizmatlar eksporti infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish hamda eksportni diversifikatsiya qilish zarurligi alohida ta'kidlanadi. [12, 13]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–92-son qarori va 2021-yil 11-maydagi PQ–5116-son qarorida ham xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash, xizmat turlarini kengaytirish hamda xizmat ko'rsatish sifati va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha muhim strategik vazifalar belgilab berilgan. Ushbu me'yoriy hujjatlar milliy xizmatlar sektorini jadal rivojlantirish va global xizmatlar bozoriga integratsiyalashuvning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Yuqoridagi ilmiy va amaliy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar eksportini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlar dolzarb ahamiyatga ega:



- innovatsion xizmat turlarini kengaytirish;
- raqamli iqtisodiyot asosida eksport infratuzilmasini rivojlantirish;
- xalqaro standartlarga mos sifat tizimini joriy etish;
- malakali kadrlar tayyorlash va servis madaniyatini oshirish;
- davlat tomonidan eksport faoliyatini institutsional qo'llab-quvvatlash.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, xizmatlar eksporti iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib, raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion va tizimli yondashuv zarur. Shu asosda O'zbekiston sharoitida xizmatlar eksportini rivojlantirish bo'yicha kompleks strategiya ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. [1, 2, 3, 4]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmatlar eksportini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini har tomonlama o'rganish uchun ilmiy tahlilning kompleks yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, statistik va empirik uslublarning uyg'unlashgan tizimiga asoslanadi.

Birinchidan, nazariy-tahliliy yondashuv yordamida xizmatlar eksportining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va milliy iqtisodiyotdagi o'rni aniqlab olindi. Bunda klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, xususan, M. Porterning raqobat ustunligi konsepsiyasi, P. Krugmanning xalqaro savdo modeli hamda JST va XVJning xizmatlar savdosi bo'yicha konseptual yondashuvlari tahlil qilindi. Ushbu nazariy asoslar orqali xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini belgilovchi omillar tizimi shakllantirildi.

Ikkinchidan, statistik tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi xizmatlar eksporti dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi o'sish sur'atlari va ulushlari, shuningdek, asosiy eksport yo'nalishlari o'rganildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Markaziy bank, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Jahon savdo tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanildi. Olingan raqamlar asosida xizmatlar eksportining o'sish tendensiyalari va raqobat ko'rsatkichlari dinamik tahlil qilindi.

Uchinchidan, taqqoslama tahlil usuli asosida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning xizmatlar eksporti tajribalari solishtirildi. Xususan, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya va Estoniya kabi mamlakatlarning raqamli xizmatlar eksporti, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda davlat siyosati orqali raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amaliy tajribalari o'rganildi. Ushbu tajribalar asosida O'zbekiston uchun moslashtirilgan strategik yo'nalishlar ishlab chiqildi.

To'rtinchidan, sotsiologik yondashuv doirasida xizmatlar eksporti bilan shug'ullanayotgan korxona vakillari, soha mutaxassislari va ekspertlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali amaliy muammolar va imkoniyatlar aniqlab olindi. Bu usul xizmatlar eksporti tizimidagi muvofiqlashtirish, marketing va kadrlar salohiyati bilan bog'liq kamchiliklarni aniqlashga yordam berdi.

Beshinchidan, SWOT-tahlil usuli orqali O'zbekiston xizmatlar eksportining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlar aniqlanib, ushbu omillar asosida strategik yo'nalishlar belgilandi.

Tadqiqot natijalarini ishonchligini ta'minlash maqsadida induktiv va deduktiv tahlil usullaridan ham foydalanildi. Induktiv yondashuv orqali empirik ma'lumotlardan umumiy nazariy xulosalar chiqarilgan bo'lsa, deduktiv tahlil yordamida mavjud nazariy qarashlar amaliy holatlar bilan solishtirilib, ularning milliy sharoitdagi qo'llanish imkoniyatlari baholandi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi xizmatlar eksportining rivojlanish omillarini aniqlash, raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va milliy amaliyot uchun ilmiy asoslangan takliflar tayyorlashga yo'naltirilgan. [11, 12]

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, xizmatlar sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YalM) qariyb 48 foizini tashkil etdi, bu esa sohaning milliy iqtisodiyotdagi o'rni yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xizmatlar eksportining hajmi 2018–2024-yillar oralig'ida o'rtacha 8–10 foiz sur'at bilan o'sdi. Biroq bu raqamlar hali to'liq salohiyatni aks ettirmaydi — xalqaro miqyosda xizmatlar eksportining ulushi global savdoning 25–30 foizini tashkil etayotgan bir paytda, O'zbekiston uchun bu ko'rsatkich hali 15 foizdan oshmagan.

Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat xizmatlar eksporti asosan transport (50%), sayyohlik (25%), axborot-kommunikatsiya (10%), moliya va ta'lim xizmatlari (8%) hamda boshqa xizmatlar (7%) hissasiga to'g'ri keladi. Bu tarkibiy tuzilma xizmatlar eksportining yetakchi yo'nalishlari transport-logistika va turizm tarmoqlarida jamlanganini ko'rsatadi.



Biroq, ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksportda yuqori qiymat qo'shuvchi xizmat turlari — masalan, IT-xizmatlari, injiniring, konsalting, moliyaviy texnologiyalar va onlayn ta'lim xizmatlari — iqtisodiy raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston sharoitida xizmatlar eksportini innovatsion xizmatlar ulushi hisobiga diversifikatsiya qilish zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston xizmatlar eksportining raqobatbardoshligiga quyidagi omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda:

- Infratuzilma rivojlanish darajasi — transport va logistika tizimlarining yetarli darajada modernizatsiyalanmagani eksport xarajatlarini oshiradi.
- Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi — axborot texnologiyalarining sekin sur'atlarda rivojlanishi xizmatlar eksportining innovatsion turlarini cheklab qo'yimoqda.
- Kadrlar salohiyati — xizmatlar sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi eksport sifatiga bevosita ta'sir etmoqda.
- Xalqaro standartlar bilan uyg'unlik — xizmat ko'rsatish sifati va sertifikatlash tizimi JST talablariga to'liq mos emas.
- Marketing va brending mexanizmlari — milliy xizmatlar mahsulotlarini xalqaro bozorlarda ilgari surish strategiyasi hali to'liq shakllanmagan.

Yuqoridagi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion yondashuv, raqamli transformatsiya va xalqaro integratsiya yo'nalishlari muhim o'rin tutadi. Tadqiqot doirasida Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya tajribalari o'rganildi.

Janubiy Koreyada xizmatlar eksportining o'sishi IT, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida davlat tomonidan berilgan soliq imtiyozlari va grant dasturlari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Singapurda raqamli xizmatlar eksporti uchun yagona elektron platformalar ("e-Services Hub") tashkil etilgan bo'lib, bu eksport jarayonlarini soddalashtirgan.

Estoniyada esa "raqamli hukumat" konsepsiyasi asosida xizmatlarning 90 foizdan ortig'i onlayn shaklda eksport qilinadi.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar eksportini rivojlantirishda davlat siyosati, raqamli infratuzilma va innovatsion ekotizim hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar eksportini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga, milliy brendlarning xalqaro miqyosda tan olinishi va iqtisodiy raqobatbardoshlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar tizimi keltirilgan:

1-jadval. Xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar tizimi¹

T/r	Omil nomi	Tavsif	Ilmiy manba yoki nazariya
1	Innovatsion salohiyat	Yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi	M. Porter (raqobat ustunligi)
2	Infratuzilma rivoji	Transport, logistika va IT tarmoqlarining rivojlanishi	JST konsepsiyasi
3	Mehnat resurslari sifati	Kadrlar malakasi va til bilish darajasi	Krugman modeli
4	Davlat qo'llab-quvvatlovi	Eksportni rag'batlantiruvchi siyosat va soliq imtiyozlari	JST va XVJ tavsiyalari
5	Marketing strategiyasi	Xizmatlar brendlash va xalqaro reklama siyosati	Zamonaviy iqtisodiy nazariya

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsiya, infratuzilma va inson kapitali asosiy omillar hisoblanadi.

2-jadval. O'zbekiston xizmatlar eksportining dinamikasi (2019–2024 yillar statistik tahlil asosida)²

T/r	Yil	Umumiy eksport hajmi (mln. \$)	Xizmatlar eksporti (mln. \$)	Ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)
1	2019	13 600	2 100	15,4	—
2	2020	12 900	1 950	15,1	-7,1
3	2021	14 700	2 500	17,0	+28,2
4	2022	16 300	3 100	19,0	+24,0
5	2023	18 200	3 700	20,3	+19,4
6	2024	19 800	4 300	21,7	+16,2

1 Nazariy tahlillar asosida muallif ishlanmasi

2 2019–2024 yillar statistik tahlil asosida muallif ishlanmasi



So'nggi besh yillikda O'zbekiston xizmatlar eksporti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Ayniqsa, IT-xizmatlar va turizm yo'nalishlarida sezilarli o'sish kuzatilgan.

3-jadval. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida xizmatlar eksporti modelining taqqoslamasi³

T/r	Mamlakat	Yetakchi xizmat turi	Eksport siyosati xususiyati	Asosiy raqobat ustunligi
1	Janubiy Koreya	IT va texnik konsalting	Raqamli transformatsiya dasturlari	Innovatsion kadrlar
2	Singapur	Moliyaviy xizmatlar	Soliq imtiyozlari va erkin iqtisodiy zonalar	Strategik geografik joylashuv
3	Turkiya	Turizm va transport	Turizm klasterlari siyosati	Madaniy meros va servis sifati
4	Estoniya	Elektron hukumat va raqamli xizmatlar	E-hukumat tizimi, elektron identifikatsiya	To'liq raqamlashtirish modeli
5	O'zbekiston	Transport, IT, ta'lim, turizm	Eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari shakllanmoqda	Yangi raqamli imkoniyatlar paydo bo'lmoqda

Taqqoslama tahlil O'zbekiston uchun raqamli xizmatlar, elektron boshqaruv va turizm klasterlari yo'nalishida rivojlangan mamlakatlar tajribasini adaptatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

4-jadval. Xizmatlar eksportida ishtirok etuvchi korxonalar so'rovnoma natijalari (ijtimoiy tahlil asosida)⁴

T/r	So'rovnoma savoli	Ijobiy javob (%)	Salbiy javob (%)	Izoh
1	Eksport uchun yetarli marketing infratuzilmasi mavjudmi?	38	62	Marketing tizimi zaif
2	Davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash seziladimi?	44	56	Rag'batlar yetarli emas
3	Kadrlar malakasi eksport talablari darajasidami?	49	51	Malaka oshirish zarur
4	Xalqaro bozorda raqobatbardosh narx siyosatiga egamisiz?	41	59	Xarajatlar yuqori
5	Xizmat eksporti uchun axborot tizimlaridan foydalanasizmi?	67	33	Raqamli imkoniyatlar kengaymoqda

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar eksportida asosiy to'siqlar marketing infratuzilmasi, kadrlar malakasi va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligidir.

5-jadval. O'zbekiston xizmatlar eksportining SWOT-tahlili⁵

T/r	Kategoriya	Tavsif
1	Kuchli tomonlar (S)	Barqaror makroiqtisodiy siyosat, yosh va malakali mehnat resurslari, IT sohasining jadal rivoji
2	Zaif tomonlar (W)	Xizmatlar diversifikatsiyasining pastligi, marketing tizimining rivojlanmaganligi
3	Imkoniyatlar (O)	Raqamli iqtisodiyot, xalqaro turizmning tiklanishi, transport yo'laklarining kengayishi
4	Tahdidlar (T)	Geosiyosiy beqarorlik, tashqi raqobat kuchayishi, xalqaro talabdagi o'zgarishlar

SWOT-tahlil natijalari asosida O'zbekiston uchun xizmatlar eksportini rivojlantirishda kuchli tomonlarni imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirib, zaifliklarni kamaytirish strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda xizmatlar eksportining rivojlanishi va uning raqobatbardoshligini oshirish masalalari har tomonlama ilmiy asosda tahlil qilindi. O'tkazilgan nazariy, statistik, taqqoslama, sotsiologik va SWOT tahlillar

³ Rivojlangan mamlakatlar tajribasi bo'yicha muallif ishlanmasi

⁴ Ijtimoiy tahlil asosida muallif ishlanmasi

⁵ SWOT-tahlili asosida muallif ishlanmasi



natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston xizmatlar bozori so'nggi yillarda sezilarli darajada kengayib, milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xizmatlar eksportining umumiy eksportdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayonlarining faollashganidan dalolat beradi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, O'zbekiston xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar salohiyati, marketing va brendlash strategiyalarining samaradorligi, shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarining sifat darajasi.

Biroq, mavjud holatda xizmatlar eksporti tizimida bir qator muammolar ham aniqlangan: eksport marketingi va xalqaro reklama tizimi yetarlicha shakllanmagan, xizmatlar segmentatsiyasi va diversifikatsiyasi past darajada, korxonalarning raqamli transformatsiyasi sekin kechmoqda, shuningdek, eksportni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari yetarlicha kuchli emas.

Taqqoslama tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar (Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Estoniya) tajribasida xizmatlar eksportini rag'batlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, erkin iqtisodiy zonalar yaratish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish va eksportchi korxonalarga innovatsion grantlar taqdim etish muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, xizmatlar eksportining barqaror o'sishini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion rivojlanish va xalqaro integratsiyani kuchaytirishning muhim omilidir. Shu sababli, milliy siyosatda xizmatlar sektorini qo'llab-quvvatlash, uni raqamli iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xizmatlar eksportini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar amaliyotga tatbiq etilsa, O'zbekiston iqtisodiyotining eksport salohiyati kengayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy nufuzi yanada mustahkamlanadi:

Birinchidan, xizmatlar eksportini rivojlantirishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida "Xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" alohida qonun qabul qilinishi lozim. Ushbu hujjatda xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari, subsidiyalar va davlat kafolatlari tizimi aniq belgilanishi kerak.

Ikkinchidan, xizmatlar eksportini kengaytirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda davlat tomonidan xalqaro to'lov tizimlari, elektron kontraktatsiya, logistika va raqamli marketingni qo'llab-quvvatlovchi milliy eksport platformasini yaratish zarur.

Uchinchidan, xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini oshirishda inson kapitalining rivojlanishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida "Xalqaro xizmatlar bozori", "Eksport menejmenti", "Xizmatlar marketingi" kabi yangi fanlarni joriy etish, mutaxassislar uchun xalqaro trening va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish zarur.

To'rtinchidan, marketing va xalqaro brendlash tizimini kuchaytirish talab etiladi. O'zbekiston xizmatlarini jahon bozorida tanitish maqsadida "UzServices Export" kabi yagona milliy brendni shakllantirish, xorijda O'zbekiston xizmatlarini targ'ib qiluvchi yarmarkalar, forumlar va media-kampaniyalar o'tkazish lozim.

Beshinchidan, eksportchi korxonalarga moliyaviy ko'mak va rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish kerak. Bunda "Eksportni moliyalashtirish jamg'armasi" tashkil etilib, xizmatlar eksporti loyihalariga past foizli kreditlar, grantlar va sug'urta kafolatlari ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish lozim. Bu yo'l bilan innovatsion xizmatlar, IT, transport-logistika va ta'lim eksporti sohalarida yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Yettinchidan, xizmatlar eksportini hududlar kesimida rivojlantirish uchun regional eksport markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu markazlar korxonalarga marketing, huquqiy, moliyaviy va konsalting xizmatlarini ko'rsatish orqali ularning xalqaro bozorlarga chiqish jarayonini yengillashtiradi.

Sakkizinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida JST, XVJ, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlar bilan qo'shma loyihalar va texnik yordam dasturlarini amalga oshirish kerak.

To'qqizinchidan, xizmatlar eksportining tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasini ta'minlash lozim. Turizm, transport, axborot texnologiyalari, ta'lim, moliyaviy va tibbiy xizmatlar sohalarida alohida eksport strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

O'ninchidan, xizmatlar eksporti bo'yicha to'liq va ishonchli statistik ma'lumotlar bazasini yaratish talab etiladi. Bu orqali tarmoqlar kesimidagi eksport salohiyati, bozorlardagi ulush va tendensiyalarni tahlil qilish imkoniyati oshadi.

Xizmatlar eksportining raqobatbardoshligini oshirish — O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu sohada kompleks yondashuvni, innovatsion strategiyalarni va xalqaro integratsiyani uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada mamlakatning xalqaro iqtisodiy nufuzi oshadi, eksport diversifikatsiyasi kengayadi va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari” PQ – 5113 son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan. 2012 yilda yangi tahriri qabul qilingan.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–92-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–5116-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PQ–468-sonli qarori — “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida.”
6. “Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.
7. Porter M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press.
8. Krugman P. (1994). Competitiveness: A Dangerous Obsession. — Foreign Affairs Journal, Vol. 73, No. 2, pp. 28–44.
9. International Monetary Fund (IMF). World Economic Outlook Reports 2020–2023. — Washington D.C.: IMF Publications.
10. World Trade Organization (WTO). World Trade Report 2023: The Future of Trade in Services. — Geneva: WTO.
11. Porter M. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. — Harvard Business Review, Vol. 76, No. 6, pp. 77–90.
12. Vahobov A., Qosimov B., Axmedov Sh., Tursunov D. (2021). Xizmatlar sektorining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. — Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
13. Mahmudov A., Nurov O. (2020). Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar eksportini rivojlantirish muammolari va yechimlari. — Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №4.
14. Jahon banki (2022). Service Trade Performance Indicators for Developing Economies. — Washington D.C.: World Bank Group.
15. Xalqaro valyuta jamg'armasi (2021). Digitalization and Service Exports: Policy Implications for Emerging Markets. — IMF Working Paper, WP/21/145.
16. OECD (2020). Trade in Services: Global Trends and Policy Challenges. — Paris: OECD Publishing.
17. Jahon savdo tashkiloti (2022). Trade in Services Statistics. — Geneva: WTO Publications.
18. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (2023). Xizmatlar eksportini kengaytirish bo'yicha tahliliy hisobot. — Toshkent.
19. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
20. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>